

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF OPERATIONAL INVESTIGATIVE METHODS IN THE FIGHT AGAINST CRIME

Juraev Farkhod Eshboevich

applicant for the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

E-mail: Djuraev11@gmail.uz

Abstract. This article examines the theoretical and practical significance of investigative operations in crime prevention, particularly the essence of personal observation. Personal observation is presented not as a one-time event, but as a systemic process and a set of targeted investigative actions. Various approaches, scholarly opinions, and assessments are analyzed comparatively, substantiating the role and significance of personal observation in investigative operations. It is noted that the use of this method requires highly professional training, tactical knowledge, and the ability to make independent decisions. Furthermore, the article, along with the legal, practical, and theoretical foundations of personal observation, identifies challenges in its effective use.

Keywords: crime, crime detection, investigative operations, investigative measures, method, evidence, personal observation, survey, mechanism, independent actions, law enforcement agencies.

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Djuraev Farxod Eshboevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyatchilikka qarshi kurash jarayonida tezkor-qidiruv faoliyati usullarining nazariy va amaliy ahamiyati, xususan shaxsiy izquvarlik usulining mohiyati yoritilgan. Shaxsiy izquvarlik yakka tadbir sifatida emas, balki tizimli jarayon va maqsadli yo'naltirilgan tezkor-qidiruv tadbirlari majmuasi sifatida tahlil qilinadi. Ilmiy manbalardagi turli yondashuvlar, olimlar fikrlari hamda ularning baholari qiyosiy tarzda o'rganilib, shaxsiy izquvarlikning tezkor-qidiruv faoliyatidagi o'rni va ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, shaxsiy izquvarlik usulini amalga oshirishda xodimlardan kasbiy tayyorgarlik, taktik bilimlar va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati talab qilinishi ta'kidlanadi. Maqolada shaxsiy izquvarlik usulining huquqiy, amaliy va nazariy asoslari bilan bir qatorda uni samarali tatbiq qilishdagi muammolar ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik, jinoyatlarni ochish, tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv tadbirlari, usul, dalil, shaxsiy izquvarlik, so'rov, mexanizm, mustaqil harakat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N82>

Kirish. Jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonida tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini samarali hal etishda tezkor-qidiruv tadbirlari (keyingi o'rinlarda – TQT) alohida o'rin va ahamiyatga egadir. Zero, TQTlar orqali jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etish, jinoyatchilarni qidirib topish, shuningdek, jinoiy faoliyatga oid dalil va ma'lumotlarni to'plash imkoni yaratiladi. Shu boisdan ham TQTlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida markaziy mexanizm sifatida namoyon bo'lib, tezkor-taktik vazifalarni bajarishda samaradorlik va natijaviylikni ta'minlaydi.

Ixtisoslik adabiyotlarda shaxsiy izquvarlik tezkor-qidiruv faoliyati (keyingi o'rinlarda – TQF) usuli sifatida ta'riflanadi. Bu holda alohida elementlar “usul” degan yagona termin ostida birlashtiriladi – “usul” deb ma'lum bir maqsadga erishish, muayyan vazifani hal etish usuli, hamda qabullar va operatsiyalar jamlanmasi tushuniladi. Ushbu usul jinoyat sodir etilgani to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni yig'ish, gumon qilinuvchi shaxslarni aniqlash va ularni qidirib topishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Shaxsiy izquvarlik yakka (alohida) tadbir emas, balki muayyan jarayonni ifodalovchi, maqsadga yo'naltirilgan TQT majmuasidan iborat bo'lib, ularning tanlanishi va uyg'unlashuvi mavjud holatlar hamda tezkor-qidiruv faoliyati doirasida hal etilishi zarur bo'lgan vazifalarga bog'liqdir. Shaxsiy izquvarlikni TQFning boshqa shakl va usullariga qarama-qarshi qo'yish noto'g'ri hisoblanadi. Zero, tezkor-qidiruv faoliyatida bevosita (shaxsiy izquvarlik) va bilvosita amalga oshiriladigan TQTLar o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini shartlantiradi. Shuningdek, shaxsiy izquvarlik jarayonida TQFni amalga oshirayotgan boshqa bo'linmalar tomonidan yig'ilgan ma'lumotlardan ham samarali foydalanilishi shart.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. V.Yu. Yegorov, V.M. Chibunin, Yu.S. Stepanenko va P.M. Fidel kabi mutaxassis-olimlar o'z tadqiqotlarida shaxsiy izquvarlikni tezkor-qidiruv faoliyatining mustaqil usullaridan biri sifatida qarashadi [2]. Ularning ta'kidlashicha, ushbu usul tezkor xodim tomonidan shaxsan va mustaqil ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Shuningdek, mualliflar aksar ilmiy va amaliy manbalarda shaxsiy izquvarlik bilan bog'liq usullar muayyan guruhdagi tezkor tadbirlar tarkibida alohida shakl sifatida tasniflanishini qayd etishadi. Biroq ushbu fikrni kengroq va mukammalroq ta'rif bilan to'ldirish orqali uning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada ochib berish mumkin.

TQF nazariyasida “shaxsiy izquvarlik” tushunchasi, uning mohiyati, mazmuni hamda boshqa tezkor-qidiruv usullari bilan o'zaro munosabati yuzasidan turlicha ilmiy qarashlar mavjud. Ayniqsa, A.S. Vandyshchev, A.F. Volynskiy, D.V. Grebelskiy, Ya.V. Nelyubin va V.G. Samoylov singari olimlar “shaxsiy izquvarlik”ni mustaqil usul sifatida emas, balki uni boshqa usullarning jamlanmasi asosida shakllanadigan, jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor xodimlar faoliyatining tashkiliy-taktik shakli sifatida baholaydilar.

Muhokama. Bunday yondashuv, ya'ni “shaxsiy izquvarlik”ni usul sifatida emas, balki tashkiliy-taktik faoliyat turi sifatida qarash, nazariy jihatdan yetarlicha asoslangan deb bo'lmaydi. Chunki har qanday TQF usuli muayyan amaliy usullar va metodlar majmuidan tashkil topadi, ular esa o'z navbatida muayyan harakat, tadbir yoki vositani ifodalaydi [3].

Shu nuqtai nazardan, har bir TQF usulining nazariy asosi va amaliy qiymati, avvalo, uning mohiyatiga xos bo'lgan, faqat ushbu usul doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy vositalar bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, har bir usul o'ziga xos amaliy mexanizmlar, taktik yo'l-yo'riqlar va ishlash algoritmlari orqali boshqa usullardan farq qiladi.

Masalan, tezkor kuzatuv usuli ko'proq vizual nazorat va tashqi belgilari asosida obyekt yoki shaxs haqida ma'lumot to'plashga yo'naltirilgan bo'lsa, axborot yig'ish maqsadida o'tkaziladigan so'rov – tezkor so'rov usulining tarkibiy qismi sifatida axborot manbalaridan aniq va ishonchli ma'lumot olishga qaratilgan. Shaxsiy izquvarlik esa o'ziga xos uslubiy xususiyatlarga ega bo'lib, shaxsning aynanligini aniqlash, uning xatti-harakatlarini tizimli ravishda kuzatish hamda zarurat tug'ilganda uning taniqli belgilari asosida aniqlash kabi maxsus metodlarga tayanadi. Bu tahlildan ko'rinadiki, har bir usulning samaradorligi uning

faqat o'ziga xos vosita va metodlardan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

A.A.Bitov va A.A.Tokaevlarning ta'kidlashicha, shaxsiy izquvarlik, bu ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jinoyatlarni aniqlash, ularning oldini olish va fosh etish, qidiruvda bo'lgan jinoyatchilarni topish hamda tezkor-qidiruv faoliyatining boshqa vazifalarini amalga oshirish maqsadida bevosita, ya'ni shaxsan o'zi tomonidan amalga oshiriladigan, ochiq yoki yashirin shaklda o'tkaziladigan maxsus tadbir va usullar majmuasini ifodalovchi tezkor faoliyat shakli hisoblanadi [4]. Mualliflar ta'rifida qayd etilganidek, shaxsiy izquvarlikning amalga oshirilishi muayyan tezkor vaziyat, huquqbuzarlikning xususiyati va unga ta'sir qiluvchi omillar bilan bog'liq holda shakllanadi va qo'llaniladi.

Olimlar A.A.Bitov va A.A.Tokaev tomonidan berilgan shaxsiy izquvarlikka oid ta'rif va tushuncha mazmunan mukammal va ilmiy asoslangan holda ifodalangan. Unda shaxsiy izquvarlikning amaliy mazmuni, huquqiy maqsadi va tezkor xususiyatlari o'rinli tarzda qamrab olingan. Aniqroq aytganda, shaxsiy izquvarlikni ichki ishlar organlari xodimining shaxsan, ya'ni mustaqil ravishda amalga oshiradigan tezkor faoliyat turi sifatida ta'riflash uning boshqa usullardan farqini ochib beradi.

A.A.Sherstneva va T.O.Yarkoning fikricha, amaliyotda shaxsiy izquvarlikni faqatgina muayyan ixtisoslashgan bo'linmalar emas, balki ichki ishlar organlarining ko'plab xizmatlari, ayniqsa, tezkor xizmatlarda faoliyat yurituvchi xodimlar amalga oshiradilar. Bu esa shaxsiy izquvarlikning universal ahamiyatga ega ekanligini, uning turli sohalaridagi tezkor-qidiruv faoliyatida qo'llanilish imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur holat shaxsiy izquvarlik tadbirlarini tashkil qilish va olib borishda xodimlardan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, mulohazakorlik va vaziyatni chuqur tahlil qilish qobiliyatini talab qiladi.

Shuningdek, bu ish usuli ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati va profilaktika inspektorlari tomonidan maxsus vazifalarni bajarishda ham samarali qo'llanilishi mumkin [5].

Mazkur fikrda shaxsiy izquvarlik faqat maxsus tezkor xizmatlar bilan cheklanib qolmay, balki ichki ishlar tizimining boshqa tarkibiy bo'linmalarida ham keng qo'llanilishi mumkinligi ta'kidlangani dolzarb va amaliyotga yaqin yondashuvdir. Chunki huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda har bir xizmatning o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lib, shaxsiy izquvarlik – bu vazifalarni samarali bajarishga ko'maklashadigan muhim usul hisoblanadi.

Jinoyatlarni fosh etish vazifasi kompleks xususiyatga ega, chunki uni jinoyat-protsessual choralarni qo'llamay turib bajarib bo'lmaydi. Aniqlangan har bir jinoyat fakti bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilishi lozim, hamda uni ochish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlari tergov harakatlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi [6].

Shu bilan birga, mazkur fikrni yanada mukammallashtirish va to'ldirish maqsadida quyidagicha taklif bildirish mumkin, jumladan, mualliflar shaxsiy izquvarlikning huquqiy va protsessual chegaralarini, uning turli xizmatlarda qanday tartibda hamda qaysi holatlarda qo'llanilishi mumkinligini aniqroq belgilab o'tishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shaxsiy izquvarlikni amalga oshirishda xodimlarning malakasi, tayyorgarligi va mas'uliyati darajasi kabi omillar ham ko'rib chiqilishi kerak, chunki bu usul noto'g'ri qo'llanilganda inson huquqlarini buzish xavfi ham yuzaga kelishi mumkin.

Natija. “Tezkor-qidiruv faoliyati nazariyasi” darsligi mualliflarining ta'kidlashicha, “shaxsiy izquvarlik” tushunchasini sharhlashda uni tashkil etuvchi so'zlarning semantik

mazmunini tahlil qilish muhim metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Mualliflar “shaxsiy” atamasini “individual” va “mustaqil” soʻzlarining sinonimi sifatida qarab, uni amalga oshirilayotgan harakat yoki faoliyatning subyektga taalluqliligini belgilovchi belgisi sifatida talqin qiladilar.

Shuningdek, “izquvarlik” soʻzini esa ular “aniqlash”, “qidirish” va “topish” maʼnolarida tushunadilar. Ushbu leksik tahlil asosida, mualliflar shaxsiy izquvarlikni jismonan bir shaxs – ichki ishlar organi xodimi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan, jinoyatlarga daxldor obyektlarni aniqlash, topish va fosh etishga qaratilgan tizimli harakatlar majmuasi sifatida izohlaydilar [7].

Ushbu fikrga ijobiy ilmiy munosabat bildirish mumkin, zero u “shaxsiy izquvarlik” tushunchasini aniqlashda leksik va semantik tahlilni metodologik yondashuv sifatida qoʻllashga asoslanadi. Bunday yondashuv, avvalo, nazariy aniqlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Atamaning har bir komponent qismi yaʼni “shaxsiy” va “izquvarlik” soʻzlarining mazmunan tahlil qilinishi, uning tub mohiyatini tushunishga imkon yaratadi.

K.K.Goryaynov va V.S.Ovchinskiylarning taʼkidlashicha, shaxsiy izquvarlik yakka (alohida) tadbir emas, balki muayyan jarayonni ifodalovchi tadbirlar majmuasi sifatida namoyon boʻladi. Ushbu jarayon doirasida maqsadli yoʻnaltirilgan tezkor-qidiruv tadbirlari kompleksi amalga oshiriladi. Bunday tadbirlarning tanlanishi va uygʻunlashuvi esa mavjud holatlar hamda tezkor-qidiruv faoliyati doirasida hal qilinishi lozim boʻlgan vazifalar bilan belgilanadi [8].

Fikrimizcha, ushbu olimlar oʻzlarining fikrlari bilan shaxsiy izquvarlikning mohiyatini ochib berishga harakat qilishgan. Ular shaxsiy izquvarlikni oddiy yakka tadbir sifatida emas, balki tizimli va uzluksiz jarayon sifatida baholab, uning samaradorligi maqsadli yoʻnaltirilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini toʻgʻri tanlash va uygʻunlashtirishga bogʻliqligini taʼkidlaydi. Bu yondashuv amalda ham muhim ahamiyatga ega, chunki shaxsiy izquvarlikning funksional qiymati aynan uning tizimli xarakterga egaligida namoyon boʻladi.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida “izquvar” atamasi “iz qidirib, izdan tushib topish bilan shugʻullanuvchi shaxs” sifatida, “shaxsiy” soʻzi esa – tegishli, subyektiv ; xususiy, shaxsning oʻziga tegishli boʻlgan, shu shaxsning oʻzi foydalanadigan, xususiy, oʻz yaʼni muayyan subyektiga tegishli, xususiy yoki faqat oʻsha shaxs tomonidan foydalaniladigan narsa yoki holat maʼnosida izohlangan [9].

Shaxsiy izquvarlik usulini samarali qoʻllash uchun IIO xodimi taktik usullarni chuqur bilishi va amalda qoʻllay olishi, hamkasblarining ish tajribasidan unumli foydalanishi, oʻz kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi lozim. Zero, shaxsiy izquvarlik jinoyatchilikka qarshi kurashishda qoʻllaniladigan eng samarali [10] vositalardan biridir.

Umuman olganda, shaxsiy izquvarlik doirasidagi tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish masalalari boʻyicha qonunchilik bazasi toʻliq shakllantirilgan va samarali faoliyat yuritmoqda. Shaxsiy izquvarlik usullarini samarali qoʻllash uchun faqatgina ularning meʼyoriy-huquqiy asoslarini bilishning oʻzi yetarli emas. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan shaxsiy qidiruvni qoʻllashda aniq harakatlar algoritmini ishlab chiqish zarur. Qonunda ham shaxsiy izquvarlik vositalarini qoʻllash tartibi va usullari batafsil belgilanmagan.

Shunday qilib, shaxsiy izquvarlik TQT majmuasi doirasida jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida tezkor xodim tomonidan tezkor-qidiruv faoliyati vositalari va usullarini

shaxsan (bevosita) qo'llash orqali amalga oshiriladigan jarayon sifatida ta'riflanadi. Shaxsiy izquvarlik TQT majmuasi sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tezkor xodim (yoki ichki ishlar organlarining boshqa xodimi) tomonidan tezkor qiziqish uyg'otuvchi shaxslar paydo bo'lishi ehtimol bo'lgan hududlarni shaxsan (bevosita) kuzatish va baholash;

- tezkor-qidiruv belgilari orqali tezkor qiziqish uyg'otuvchi shaxslarni aniqlash va identifikatsiya qilish;

- olingan ma'lumotlarga tayana turib tegishli (adekvat) qarorlarni qabul qilish.

Xulosa. kunda ichki ishlar organlari xodimlari foydalanayotgan shaxsiy qidiruv vositalari ancha keng ko'lamli bo'lib, jinoiy harakatlarga qarshi kurashish va sodir etilgan jinoyatlarni fosh qilish sohasidagi zamonaviy talablarga to'liq javob beradi.

Shu sababli, ichki ishlar organlari xodimlarining tezkor-xizmat faoliyatida shaxsiy izquvarlikni qo'llash samarali ishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ichki ishlar organlari xodimlari o'zlarining tezkor-xizmat faoliyatida shaxsiy qidiruvni qo'llash bo'yicha nazariy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini kengaytirishi lozim. Bu esa ularga o'z kasbiy vazifalarini yuqori malaka bilan bajarish imkonini beradi.

Muxtasar qilib aytganda, shaxsiy izquvarlik jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va oldini olish, shuningdek qidiruvdagi shaxslarni topishga qaratilgan tizimli tezkor tadbirlar majmuasi bo'lib, u ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirish va jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Никушов С.С., Актуальные вопросы осуществления оперативно-розыскной деятельности при документировании преступлений личным сыском. Сборник научных статей по итогам всероссийской научно-практической конференции Социально-экономические и правовые меры борьбы с преступлениями и иными правонарушениями. 2022. С-217-221
2. Егоров В. Ю., Чибунин В. М., Степаненко Ю. С., Фидель П. М. Обучение тактике применения и методам личного сыска// Педагогика. вопросы теории и практики №3 (7) 2017 С: 36-39.
3. Смоленская Н.И., .Оперативно-розыскные мероприятия, применяемые для раскрытия общеуголовных преступлений при работе личным сыском. Вестник Московского университета МВД России № 6 • 2008 С.133
4. Битов А.А. Токбаев А.А. Понятие и задачи личного сыска. Пробелы в российском законодательстве. 6'2019. С-218.
5. Шерстнева А.А., Ярмо Т.О. Актуальные вопросы тактики проведения личного сыска // В сборнике: Правовая защита частных и публичных интересов. Сборник научных статей международной научно-практической конференции, посвященной памяти выдающегося российского адвоката Федора Никифоровича Плевако (1842-1908). 2019. – С. 333.
6. A.A. Hamdamov, T.R. Saitbaev, S.N. Gordeev, R.T. Rashitxodjaev. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonuniga sharh. 2015. B-26
7. Теория оперативно-розыскной деятельности: учебник / под ред. К. К. Горяинова, В .С. Овчинского. 4-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2018. X, 379 с.
8. Горяинов К.К., Овчинский В.С. Теория оперативно-розыскной деятельности: учебник.-Москва М.:Инфра-М, 2021. Стр. 391
9. Begmatov E, Madvaliev A. va boshq. O'zbek tilining izohli lug'ati."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. B-183 va B-557

-
10. Гогаева А.Л. Понятие и правовая сущность личного сыска при несение службы содрудниками ППС. Материалы 9-й международной научно-практической конференции. 2020. С-451.
https://elibrary.ru/download/elibrary_44227131_23865792.pdf

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).